
MAQSAD KUZ-QISH MAVSUMINI BETALOFAT O'TKAZISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'yektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, fuqarolarga sifatli kommunal xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida Toshloq tumanida chora-tadbirlar belgilanib, bu borada sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Bugun tuman hokimligi, tuman FVB, tuman gaz ta'minoti, elektr tarmoqlari korxonasi, tuman tibbiyot birlashmasi hamda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda Do'stlik MFY hududida joylashgan ko'p qavatli uylarda aholi yashash xonadonlarida profilaktik ishlari olib borildi.

O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar o'z o'rnida bartaraf etildi hamda fuqarolarga kerakli tavsiyalar va tushunchalar berib o'tildi. Bu boradagi tadbirlar tuman miqyosida jaddalik bilan davom etmoqda.

2022-09-22 20:52:14